O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 28 - dekabr 403-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston shahar “Bog‘ishamol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining haqiqatda egallagan yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 10- va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining 2023-yil 20-apreldagi 01-580-sonli xat bilan viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasiga boshqarma balansidagi Guliston shahar “Bog‘ishamol” MFY hududida joylashgan 8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi haqiqatda egallagan 3,0 gektar qurilishlar, bino-inshootlar, ijtimoiy hovli va maydonlar bilan band bo‘lgan A1724401013/30-raqamli yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Xudaykulov)ga bino-inshootlarga va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Radjabov) bino-inshootlarga va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**